

## BOLALARNI MAKTABGA MOSLASHISHIDA TEMPERAMENTNING O'RNI VA RO'LI

Usmonova Hulkar

Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o'qituvchisi

Sayliyeva Umida

Guliston davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11243568>

**Annotatsiya.** Temperament shaxsning biologik jihatdan shartlangan tuzilmalariga kiradi. Temperament odamlar o'rtasida, shuningdek, hissiyotlar, hissiy taassurotlilik, harakatlarning maromi va jadalligi, va boshqa bir qator dinamikaga ega bo'lgan xususiyatlardagi ko'plab psixik farqlarning mavjudligini belgilab beradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayoniga moslashuvda temperamentning tutgan o'rni xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Temperament, xolerik, melanxolik, sangvinik, flegmatik, moshlashish, harakatchanlik.

Respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'yimoqda. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda barcha sohalarida bo'lgani kabi ilm-fan sohasiga shu jumladan, psixologiya faniga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shaxsning o'zini anglashi, o'zligini tushunish, inson xarakteri, temperamentini shakllanishi bolaligidanoq rivojlanib boradi.

Psixologiya fanida insonning psixologik xususiyatlaridan temperamentning to'laqonli yoritib berilishini ko'rishimiz mumkin. Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko'rinadigan individual xususiyatdir. Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'alish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil bo'ladi. Ba'zi insonlarning hissiyoti tez, kuchli qo'zg'aladi va barqaror bo'ladi. Ba'zi kishilarda esa bunday qo'zg'alish sust, zaif bo'lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhit ta'siriga javoban ko'rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida, pantomimikalarida, beixtiyor ish-harakat va imo-ishora-larida ko'rinib turadi. Kishi hissiyotining bunday qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab, ba'zi insonlarni "tez", "betoqat", "serg'ayrat", "jo'shqin" deb ataymiz. Ba'zilarini esa «sustkash», «lapashang» va hokazolar deb yuritimiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan kishining temperamenti (mijozi) tarkib topadi. Ayrim temperamentlarning alomatlari kishining bolalik chog'larida yaqqol namoyon bo'ladi. Insonning ruhiy olami beto'xtov harakatlar majmuasidan iborat bo'lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o'xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to'g'risidagi ta'surotlar, o'tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish-istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o'zaro o'rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam

kechishi, uning sur'ati, mazmuni, shakli, ko'lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo'lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillari-ga, ta'sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushg'ulot bilan javob qaytarishga moyillik ko'rsatadilar.

**Temperament** – bu inson faoliyati va hulq-atvorining dinamik va emotsional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig'indi. SHunday qilib, temperament ikki tarkibiy qism – faollik va hissiyotlilikka ega. Hulq-atvorning **faolligi** harakatchanlik, intiluvchanlik, tezlik, yoki, aksincha, sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi. O'z navbatda **emotsionallik** belgi (ijobiy va salbiy) modallik (shodlik, qayg'u, qo'rqinch, g'azab va boshqalar)ni aniqlagan holda emotsional jarayonlar kechishini xarakterlaydi.

Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin. Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatlari, holatlari ro'y beradi.

Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagicha aks ettiriladi. **Sangvinik** yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi, sust sezitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak, juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi. Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham, Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tkan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

**Xolerik** xuddi sangvinik kabi sust sezitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'polroq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qat'iylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsagina. Flegmatik-sezitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz, g'ayrati, ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz, diqqatini sekinlik bilan to'playdi, diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi,

Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi, tashqi ta'ssurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

**Melanxolik**-yuksak sezitivlik xususiyatiga ega, sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi, samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust, o'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ya qoladi, g'ayratsiz qat'iy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas, psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan), Introvertlik xususiyatiga ega. Faoliyatning individual uslubi va temperament faoliyatning individual uslubi insonda o'zidan o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida (bog'cha yoshidan e'tiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar) shakllanib boradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tarkib toptiradi. Xuddi shu boisdan, faoliyatning individual uslubi deyilganda shaxs uchun o'ziga xos va muvaffaqiyatga erishishning maqsadga muvofiq yo'llari individual tizimi tushuniladi. Temperament xususiyatlarining o'ziga xos yig'indisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon bo'ladi. Faoliyatning individual uslubi faqat temperamentga emas, balki boshqa sabablarga, shaxsiy tajriba jarayonida hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarga ham bog'liqdir. Faoliyatning individual uslubini inson organizmini tug'ma xususiyatlari va asab tizimi tiplarining faoliyat sharoitlariga moslanishi deb qarash mumkin. Temperamentni harakatchanligiga ko'ra qarama-qarshi xususiyatli kishilar bir xil mehnat vaziyatida turlicha harakat taktikasiga murojaat qilishlari aniqlandi. Harakatchanlari shoshilinch, tezroq bajaradi, temperamentning sust tipdagi kishilar esa shoshilinch harakatning zarurligini bildiradigan tayyorlov ishlariga ko'p e'tibor berishi bilan ajralib turadi. Insonlarni guruhda va mehnat faoliyati jarayonida lider bo'lishiga ham temperament xususiyati bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Temperamentlardan qay birining ustunligi haqidagi masalani ko'rishga zaruriyat tug'ilmaydi. Har bir temperament o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Xolerikning ehtirosililigi, faolligi va quvvati, sangvinikning ta'sirchanligi va shayligi, melanxolik hislarining chuqurligi va barqarorligi, flegmatikning xotirjamliligi va shoshqaloqligining mavjud emasligi – bularning barchasi nomlari zikr etilgan temperamentlarining ijobiy tomonlari. SHu bilan birga, ularning salbiy tomonlarini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Sangvinik temperamenti yengil tabiatlikka moyillik, hislarning etarlicha chuqur va barqaror emasligiga olib kelishi mumkin.. Xolerik temperamenti insonni cho'rtkesar, o'zini tiya olmaslik, muntazam «portlashlarga» moyil qilib qo'yishi mumkin. Melanxolik temperamenti odamda o'z kechinmalariga o'ta berilganlik, o'ta uyatchanlik yuzaga kelishi mumkin.

**Flegmatik** temperamentidagi bolalar lanj, sust, mutanosib va xotirjam odam, uning emotsional ta'sirlanishi oson emas, va o'zidan chiqarish qiyin, hislari tashqaridan deyarli namoyon bo'lmaydi. harakatsiz, hayot taassurotlarning barchasiga befarq qilib qo'yishi mumkin.

Shunday qilib, temperament individning tabiiy belgilangan psixik xususiyatlarining individual o'ziga xos yig'indisidir. bu xususiyatlarga umumiy nerv-psixik faollikning jadalligi, zo'riqqanligi, ta'sirlanish va harakatlarning maromi, individning motorli, aqliy va kommunikativ sohasida namoyon bo'ladigan xususiyatlarning kuchayishi va susayishi; sub'ekt emotsional tuzilishining qo'zg'aluvchanligi, reaktivligi, barqarorligi, hissiyotlarning nazorat qilinishi kiradi. Temperament faqat faoliyat va hulq-atvor usullarining dinamik xususiyatlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson temperamentni ta'lim, tarbiya jarayoniga, ijtimoiy olamga va insonlarning egallagan ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekan. Hayotda muvofaqiyatli insonlarni o'ziga bo'lgan ishonchi va harakati qaysidir ma'noda temperament tipiga ham bog'liqdir.

### References:

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. II kitob Toshkent «Universitet» -2002. 240-b
2. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018. - 272 b.
3. B.M.Umarov. Psixologiya. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. «Vorish-nashriyot» Toshkent – 2012
4. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
5. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
6. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.